BO‘LAJAK SURDOPEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM

Xayitov Lazizbek Rustamjon o‘g‘li
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.15899766

ANNOTATSIYA

Maqola bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvining ahamiyati va imkoniyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot zamonaviy ta'lim tizimida surdopedagoglarni tayyorlash jarayonida individual yondashuv, talabaning shaxsiy ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatib beradi. Maqolada surdopedagoglik ta'limining o'ziga xos xususiyatlari, kasbiy kompetentlikning asosiy komponentlari va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlarining samaradorligi o'rganilgan. Maqolada eshitish nuqsonli bolalar bilan ishlash uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: surdopedagogika, kasbiy kompetentlik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, individual yondashuv, pedagogik texnologiyalar, inklyuziv ta'lim, eshitish nuqsonlari, kasbiy tayyorgarlik, ta'lim sifati, pedagogik mahurat, maxsus pedagogika

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена анализу значения и возможностей личностно-ориентированного подхода к образованию в развитии профессиональной компетентности будущих учителей жестового языка. В исследовании показана необходимость индивидуального подхода, учитывающего личностные потребности и способности студента в процессе подготовки учителей жестового языка в современной системе образования. В статье рассматриваются особенности обучения жестовому языку, основные компоненты профессиональной компетентности и эффективность личностно-ориентированных методов обучения. В статье рассматриваются вопросы формирования специальных знаний, умений и компетенций, необходимых для работы с детьми с нарушениями слуха.

Ключевые слова: обучение жестовому языку, профессиональная компетентность, личностно-ориентированное образование, индивидуальный подход, педагогические технологии, инклюзивное образование, нарушения слуха, профессиональная подготовка, качество образования, педагогическое мастерство, специальная педагогика

ANNOTATION

The article is devoted to the analysis of the importance and possibilities of a person-centered educational approach in the development of professional competence of future sign language teachers. The study shows the need for an individual approach, taking into account the personal needs and abilities of the student in the process of training sign language teachers in the modern education system. The article studies the specific features of sign language teaching, the main components of professional competence and the effectiveness of person-centered educational methods. The article discusses the issues of forming special

knowledge, skills and competencies necessary for working with children with hearing impairments.

Keywords: sign language teaching, professional competence, person-centered education, individual approach, pedagogical technologies, inclusive education, hearing impairments, professional training, quality of education, pedagogical skills, special pedagogy

Bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini samarali rivojlantirishning birinchi va zarur shart-sharoitlaridan biri mazkur jarayonda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning imkoniyatlarini aniqlash va foydalanish hisoblanadi. Buning uchun avvalo shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim mohiyatini va undan ta’limda foydalanishning mavjud tajribasini aniqlab olamiz. Bunda tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuvga asoslanamiz.

Ma’lumki tarbiya jarayoni bu maqsadga yo‘naltirilgan shaxsga ma’lum sifatlarni rivojlanishtirish bo‘lib, pedagogik jarayon esa oldindan tashkil etilgan tarbiyaning o‘zaro ta’sir tizimidir.

Ta’lim jarayoni esa o‘quvchilarni bilim olish faoliyatini kuchaytirish, takomillashtirish, fikrlash, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, insonparvar-estetik madaniyatini rivojlantirish va ta’lim (tarbiya) malakalarini takomillashtirish vazifalarini bajaradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konseptsiyasida belgilangan talablardan anglash mumkinki, o‘qituvchining kasbiy kompetentligi, kasbiy mahorati, o‘quvchilar bilan hamkorlikda ishlash, o‘quvchilarning o‘zlashtirishiga qulay sharoitlar yaratish masalasi ilgari surilgan.

Y.V.Bondarevskayaning fikriga ko‘ra, shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini qurishda mazmunga alohida e’tibor qaratish lozim va u quyidagi zaruriy komponentlarni qamrab olishi zarur: aksiologik, kognitiv, faoliyatli-ijodiy va shaxsiy [1].

Aksiologik komponent o‘quvchilarni “qadriyatlar olamiga kiritadi” va ularga “shaxsiy ahamiyatli qadriyatli yo‘nalishlari tizimini tanlashda” yordam ko‘rsatadi. Kognitiv komponent “o‘quvchilarni ma’naviy rivojlanish asosi sifatida inson, madaniyat, tarix, tabiat, noosfera to‘g‘risidagi ilmiy bilimlar bilan ta’minlaydi”. Faoliyati-ijodiy komponent “o‘quvchilarda shaxsning mehnatda, ilmiy, badiiy va boshqa faoliyat turlarida o‘zini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan faoliyatning turli usullari, ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi va rivojlanishiga yordam beradi”. Shaxsiy komponent – “o‘z-o‘zini anglash, refleksiv qobiliyatlarning rivojlanishi, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘zini-o‘zi takomillashtirish, o‘zini-o‘zi axloqiy anglash usullarini egallashni ta’minlaydi, hayotiy pozitsiyasini rivojlantiradi” [2].

V.V.Serikovning fikriga ko‘ra, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni an’anaviy ta’limdan farqlaydigan protsessual xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi:

– o‘quv faoliyatini o‘yin, hayotiy vaziyatlar, ijtimoiy va texnik ijod strukturasiga kiritilishini ko‘zda tutuvchi kontekst ta’limning ustunligi;
– o‘quv jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi dialog, yechimni izlash va uni anglash;
– jarayonga yo‘nalganlik (faoliyat usuli, uslubi), qadriyatlarni umumiy boshdan kechirish;
– individuallik, shaxsiy fikrga huquqini tan olish bilan muloqotning insonparvarligi;
– hamkorlik munosabatining ustunligi, pedagog haqiqiy hayotiy muammolarni birgalikda yechishga, o‘zini-o‘zi o‘zgartirishga tayyor [3].

Birinchisi. Ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish ta’lim natijasiga urg‘u beradigan yondashuvdir. Bunda ta’lim natijasi o‘zlashtirilgan axborotlar yig‘indisi emas, balki shaxsni turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatidan iborat bo‘ladi.

Ikkinchisi. Kasbiy kompetensiyalar hozirgi kunda innovatsiyalarni tatbiq etish uchun kreativlikka bog‘liq bo‘lgan innovatsion ta’lim texnologiyalariga asoslangan kasbiy kompetentli o‘qituvchi faoliyatidagi ijodiy qobiliyatdir.

Uchinchisi. Kasbiy kompetensiyalarni «Bo‘lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ona tili o‘qitish texnologiyasi o‘qitishning modul-reytingli tizimidan foydalanish» maxsus kursi asosida rivojlantirish jarayoni olib boriladi.

Bunday funksiyalar sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: motivatsiya (o‘z faoliyatini qabul qilish va asoslash); vositachilik (xulqning tashqi ta’sirlari va ichki impulslariga nisbatan); kolliziya (borliqning yashirin qarama-qarshiliklarini ko‘rish); tanqid (tashqi taklif etiladigan qadriyatlar va shakllarga nisbatan); refleksiya (“Men” barqaror obrazini ongda qurish va ushlab qolish); mazmunli ijod (shaxs tomonidan mazmunlar ierarxiyasini doimiy aniqlashtirish va tekshirish); yo‘nalganlik (shaxsga yo‘naltirilgan olam obrazi – individual dunyoqarashni qurish); ichki olamning avtonomligi va barqarorligini ta’minlash; ijodiy qayta o‘zgartiruvchi (ixtiyoriy shaxsiy ahamiyatli faoliyatning ijodiy xususiyatini ta’minlash); o‘z-o‘zini amalga oshirish (o‘zining “Men” obrazini atrofdagilar tomonidan tan olinishiga intilish); shaxsiy intilishlariga muvofiq ma’naviylik va hayot faoliyati darajasini ta’minlash (hayot faoliyatini utilitar maqsadlarga qaratishning oldini olish) [3].

Barcha shaxsiy sifatlarni shartli ravishda tayanch funktsiyalarning uch guruhiga ajratish mumkin: mas’uliyat, refleksiya va o‘z-o‘zini amalga oshirish.

Mazkur funkцiyalarning to‘liqligi, ularning o‘quv jarayoni sub’ektlari faoliyatida taqdim etilganligi ta’lim jarayoni o‘z faoliyatining shaxsga yo‘naltirilgan darajasiga erishganligi, ya’ni shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lganligidan guvohlik berishi mumkin.

V.V.Serikov shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim funkцiyasi muayyan sifatga ega shaxsni rivojlantirishdan (an’anaviy ta’lim bilan solishtirganda) emas, balki ta’lim jarayoni sub’ektlarining shaxsiy funkцiyalarining to‘liq namoyon bo‘lishi va rivojlanishi uchun sharoitlar yaratishdan iborat deb hisoblaydi. “Shaxsiy funkцiyalar” tushunchasi pedagogikaga mazkur muallif tomonidan kiritilgan bo‘lib, ularni u «insonning “shaxs bo‘lish” ijtimoiy buyurtmasini amalga oshirishini ifodalovchilar» deb ta’riflaydi [3].

Mazkur holatlar va ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishdan foydalanish S.V.Belova, Ye.A.Kryukova, V.V.Serikov va boshqa tadqiqotchilarga shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning uning maqsadlarini amalga oshirishga imkon beruvchi asosiy proцessual tavsifi o‘quv vaziyat hisoblanishini (“shaxsga yo‘naltirilgan vaziyat”) ta’kidlashlariga imkon berdi. O‘quv vaziyatini qurish uchta tayanch texnologiyalardan foydalanishni ko‘zda tutadi: ta’lim mazmuni elementlarini o‘quvchining hayotiy mazmunli sohasi bilan bog‘liq turli darajali shaxsga yo‘naltirilgan vazifalar ko‘rinishida taqdim etish; shaxsning o‘zini-o‘zi amalga oshirishi, sub’ektiv-mazmunli muloqoti, refleksiyani ta’minlovchi alohida didaktik-kommunikativ muhit sifatida dialog sharoitida mazmunni o‘zlashtirish; dialog – shaxsiy tajriba manbai, shaxsning mazmun hosil qiluvchi, refleksif, tanqidiy va boshqa funkцiyalarini aktuallashtirish omili (o‘quv dialogi texnologiyasi); ichki nizolik, kolliziyalik, raqobat sharoitlarida shaxsiy funkцiyalarni amalga oshirishni ta’minlovchi ijtimoiy-rolli va makon-vaqtli sharoitlar imitatsiyasi, bunga bilish harakatlari ma’lum shaxsiy mazmunni amalga oshirganida erishish mumkin (imitatsion o‘yinlar texnologiyasi).

Vazifa – muloqot – o‘yin uchligi o‘quv jarayonining tashkiliy qismi sifatida sub’ektlararo muloqotning qadriyatli-mazmunli maydonini yaratuvchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning tayanch texnologik majmuini hosil qiladi.

Bu vaziyatda ta’lim jarayonini tor tarbiyaviy mazmuni bilan almashtirish yuz bermaydi, lekin inson tajribasi olami o‘zining boshqa – shaxsiy-mazmunli jihatlari bilan ifodalanadi, bunda xotira hamda ongga chuqur murojaat etish yo‘li bilan shaxsiy qadriyat o‘zlashtiriladi [4].

Kasbiy ta’lim muassasasida shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiyaviy jarayon o‘ziga xosliklariga egadir. Kasbiy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga o‘tish jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar va bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan bog‘liqdir.

M.M.Levina shaxsga yo‘naltirilgan kasbiy ta’lim jarayonini, aynan mazkur jarayon shaxsni kasbiy faoliyatga integratsiyasi asosida bo‘lajak pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantiradi va bunda ta’lim jarayoni samaradorligining me’yoriy talablarini saqlab qoladi deb ta’kidlaydi. Shu bilan birga ta’lim maqsadlarining yaxlitligi: talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga axborot-faoliyatli va shaxsiy tayyorgarligi amalga oshiriladi. Talabalarning o‘quv faoliyatlari bilish faoliyatiga undovchi ichki ehtiyoj, motivga aylanadi.

O‘quv hatti-harakatlari bilish motivi funkцiyasiga ega bo‘ladi, shaxsning kognitiv va kasbiy yo‘nalganligining rivojlanishi vositasi hisoblanadi, talabalarning kasbiy rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlantirish shartlarini aks ettiradi [5].

Shuning uchun, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini loyihalashda nafaqat material va uni taqdim etish usuli, balki o‘rganilayotgan material shaxsning qadriyatli-mazmunli izlanishlari uchun o‘ziga xos imkoniyat sifatida xizmat qiladigan yaxlit vaziyatni ham ishlab chiqdik.

Shaxs faqat bilimlarni yoki o‘quv vazifasini emas, balki aynan o‘zining hayotiy vaziyatini baholashini ta’kidlash zarur. Bilim va o‘quv vazifalari mazmunga ega bo‘lishi uchun esa, pedagogik shaxsning hayotiy vaziyatiga kirishi lozim. Shaxsiy tajriba o‘quv-tarbiya jarayonida shaxsiy qadriyatlar va mazmunga aloqador bo‘lgan haqiqiy munosabatlar, kechinmalar davomida sub’ektning o‘zi tomonidan talab etilishi va rivojlantirilishi mumkin. Bu sub’ektning o‘ziga xos shaxsiy rivojlantiruvchi ta’lim vaziyatiga kirib borishini nazarda tutadi. A.V.Zelentsova unda quyidagi tarkibiy elementlarni ajratadi:

– shaxsning hayotiy muammosi yoki kolliziyani, hayotidagi ayrim hodisalarni;
– pedagogni – ta’limning o‘ziga xos mazmuni sifatida shaxsiy tajriba tashuvchisini;
– mustaqil shaxsiy rivojlanish ehtiyojiga ega va bunga mos ravishda o‘zini amalga oshirishni istagan sohada shaxsiy tajribaning yetishmasligini his qiluvchi o‘quvchini;
– shaxsiy ahamiyatli faoliyat (uning bo‘lagi, muammo), uni bajarishda tarbiyalanuvchining shaxsiy funkцiyalari talab etiladigan – shaxsga yo‘naltirilgan vaziyatda “omilli maydon”;
– vaziyatning proцessual komponentlari – shaxsiy kontekstdagi turli predmetli tabiatga ega vazifalar, shaxsiy tajriba tashuvchisi bilan dialoglar tizimi, shaxsiy o‘z-o‘zini amalga oshirish ijtimoiy makonining o‘yinli immitatsiyasi [6].

Shaxsga yo‘naltirilgan kasbiy ta’limiy jarayonning o‘ziga xosligi va mazkur tadqiqot predmetidan kelib chiqqan holda, pedagogik oliy ta’lim muassasasida o‘quv fani darajasida shaxsiy-rivojlantiruvchi ta’lim vaziyati loyihalandi.

References:
Используемая литература:
Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эгамбердиева Н. Теория и практика личностной и профессиональной социализации студентов на основе культурно-гуманистического подхода (на примере высших учебных заведений педагогического профиля): Дисс. пед.фан.док. – Ташкент, 2010. – 85-151 с.
2. Дорофеев Г.В. О принципах отбора содержания математического образования// Математика в школе, 1990, вып.6. -С. 2-5.
3. Abdullaeva N.M. Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda integratsiyalashgan texnologiyadan foydalanish Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. Namangan, 2020
4. Махмутов М.И. Проблемное обучение. – М.: Педагогика, 1975. – 367 с.
5. Сластенин В.А. Профессионализм педагога: акмеологический контекст // Московский пед. Г-н муки Научные труды Московского педагогического государственного университета. Серия: Психолого-педагогические науки.- М.: Прометей, 2005. - с. 92 - 101.
6. Добров Г.М. Наука о науке / Д.М. Добров. - Киев: Наукова думка, 1969. - 301с.